

MILLIY XARAKTER YARATISH MAHORATI

Pazliddinov Sherzodbek Qurbanovich

*Namangan viloyati Davlatobod tumani MMTBga qarashli 64-sonli umumiy
o'rta ta'lif maktabi ona tili va adabiyot fanlar metodbirlashma rahbari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada elimizning sevimli shoiri Muhammad Yusufning ijodi orqali milliy xarakter yaratish bo'yicha mahorat sohibi ekanligi haqida so'z boradi. Shoir she'rlaridagi lirik qahramonlarning o'ziga xos xarakterlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Muhammad Yusuf, xarakter, obraz, qiyofa, milliy an'analar, lirik qahramon.

Аннотация: В данной статье рассказывается о мастерстве создания национального характера через творчество любимого поэта нашей страны Мухаммада Юсуфа создавать своим творчеством национальный характер.

Ключевые слова: Мухаммада Юсуфа, персонаж, образ, внешность, национальные традиции, лирический герой

Abstract: This article talkc about Muhammad Yusuf, our country's favorite poet, who has the ability to create a national culture through his work. The unique characters of the lyrical characters in the poet's poems are revealed.

Keywords: Muhammad Yusuf, character, image, appearance, national traditions, lyrical hero.

Milliy xarakter-bu ma'lum bir milliy hamjamiyatning eng barqaror, xarakteristikasi, atrofidagi dunyoni idrok xususiyatlari va unga bo'lgan munosabat shakllari to'plamidir. Xarakter-shaxsning vogelikka bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi uning xulq-atvori va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan barqaror xususiyatlarning individual tarzdagi yig`indisi.

O'zbek xalqining otashqalb shoiri Muhammad Yusuf tomonidan yaratilgan she'rlar o'zining jozibadorligi, ohangraboligi, insoning kayfiyatini ko'tara olishi, ma'no-mazmuni jihatidan ham barchamizning qalbimizdan munosib joy olgan. Shoir she'rlarida milliy xarakterni lirik qahramonlar orqali mahorat bilan tasvirlab bergen ijodkor hisoblanadi.

Shoir she'rlaridagi milliy xarakterga oid jihatlar tatbiq qilindi. Shoirning "Ota", "Onamga xat", "Ona tilim", "Tavvalo" kabi bir qator xalqimiz qalbidan joy olgan she'rlari asos qilib olindi. Hozir yashab turgan hayotimizda har-xil xarakterga xos bo'lgan insonlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Har bir insoning o'ziga yarasha xarakteri bor ekanligini jamoat joylarida kuzatishimiz mumkin. Shunaqangi insonlar borki o'z yurti uchun kerak bo'lsa joninida fido qilishga vatanini har tomonlama asrab avaylashga tayyor. Milliy urf odatlar va milliy an'analarimizga sodiqlik ularning ongida albatta Muhammad Yusuf tomonidan ma'naviy merosimiz hisoblangan she'rlari orqali ham kirib borgan desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Shoir she'rlarida o'zbek xalqining milliy xarakteri bugungi kunda insonlar qalbida chuqur aks etganini ko'ratadi. Shoirning "Ota", "Onamga xat", "Ona tilim", "Tavvalo" kabi she'rlarida o'zbek farzanlarining ota-onaga bo'lgan cheksiz hurmati shu bilan birga o'z vatanini o'zlari uchun muqaddas zotlar hisoblangan onalaridek ko'z qorachig'ida asrashlarini, ona tilimizga samimiy ehtiromlari yuqori darajada ekanligini anglab yetishganlari o'z aksini topgan. Bu esa o'z navbatida

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

yurtdoshlarimizning shoir she'rlarining hali-xanuz o'z qadr-qimmat yuksaklikka ko'tarilb borayotganidan dalolot beradi.

Shoir she'rlarida milliy xarakter masalasi alohida o'ren va ahamiyatga kasb etadi. Muhammad Yusuf she'rlarini tahlil qilish uning aynan shu masalaga jiddiyroq e'tibor bergenini ko'rsatadi. U milliy urf-odatlar va milliy an'analarga sodiq qolgan holda milliycha xarakter bilan ota-onalarni tirikligida qadrlash lozim ekanligi haqida o'z she'rlari orqali aks ettirgan. Shoir she'rlarida ota-onalarimizni hurmat qilish, vatanni sevish, vatanga bo'lган chinakam sodiqlik, vatanga olgan bilimlari orqali munosib xizmat qilishlari lozimligi haqida ham shoir tomonidan 3

yaratilgan she'rlari orqali bugungi yoshlарimiz uchun ham ibrat masalasi erkanligini aks ettirmoqda. Uning qalamiga mansub bo'lган "Ota" she'ri orqali otasiga bo'lган munosabatini bayon etadi: Armonim bor, bu dunyoda armonim bor, Qoq dalada o'tlar bosgan o'rmonim bor.

Qizg'aldoqday boshim egik bu makonda,
Yonib yashab o'tmagan otajonim bor.

Ota desam, bag'ri-dilim yonaverar,
Kunim yonar, oyu yilim yonaverar,
Mozoriga qo'ygan gulim yonaverar,
Tutunlarga to'lib ketgan osmonim bor.

Bu yorug' olamda kimning ota-onasi tirik ekan, u inson dunyoda eng baxtli insonlardan hisoblanadi. Ayniqsa, bu tabarruk zotlar bilan bir xonadonda yashash va ularning xizmatini chin dildan ado qilish dunyoning barcha ne'matlaridan ham afzalroq. Ushbu she'r orqali shoirning milliy xarakter yaratish borasida mahorati cheksiz ekanligini bilish lozim. O'zbek urf-odatlariga ko'ra har bir farzand borki, ota-onasini doimo boshlarida ko'tarib ularni ardoqlab yurishlari lozimligini she'rdagi jumlalarda aks etganini guvohi bo'lismiz mumkin. Bugungi kunda muhtaram prezidentimiz tomonidan milliy tilimizga e'tibor qaratilayotganini barchamiz yaxshi anglab yetmoqdamiz. Milliy tilimizga e'tibor esa bizga juda ham katta imkoniyatlар eshidigini ochmoqda. Shu o'rinda muhammad Yusuf qalamiga mansub bo'lган "Ona tilim" she'rinи esga olish maqsadga muvofiqdir.

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
She'r yozdimu bo'lak ishni qotirmadim.

Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bag'ri-dilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Yuqorida jumlalarga e'tibor bersak, ushbu she'rida o'z ona tilisi turib, boshqa tilda gaplashganligini, shu bilan birga oldinlari o'z tilimizda gaplashish imkoniyati yo'q ekanligi bugungi kunga kelib mustaqillik tufayli o'z milliy tilimizda gaplashish imkoniyati yaratilganligi va bu imkoniyatlardan bugun hammamiz to'g'ri va oqilona foydalainishim lozimligi, o'z navbatida esa ona tilimizning qadriga yetishimizni anglatmoqda. Har bir insonning o'z ona tili mavjud bo'lib, shu tilini asrashi va ona tili orqali uning qaysi millat vakili ekanligini ham bildirishini anglab yetgan holda o'z tilimizning dunyoda yagona ekanligini ham his qilib yashashimiz lozim bo'ladi. Bu borada yuqorida she'rda ta'kidlab o'tilganidek barchamiz milliy tilimiz hisoblangan ona tilini insonlar orasidagi eng asosiy muloqot vositasi ekanligini yana bir bora anglab yetishimiz lozim. Milliy xarakter haqida so'z borar ekan, bu borada ham har bir inson o'zining xarakteridan kelib chiqqan holda urf-odatlarimizni, milliy

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

qadriyatlarimizni, yurt tinchligini, shoirimiz she'rlari orqali ta'kidlab o'tilganidek milliy tilimizni, shu bilan birga ota-onha kabi aziz va muqaddas hisoblangan vatanimizni doimo ko'z qorachig'idek asrab-avaylashlari ham muhimdir. Bir insoning salbiy xarakteri orqali yurt sha'niga qadr-qimmatiga putr yetib ham qolishi mumkin. Aksincha ijobjiy xarakter egasi hisoblangan inson orqali yurtimiz sha'ni va qadr-qimmatiga, ona tilimizning ulug'lanishiga guvoh bo'lismiz ham mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Muhammad Yusuf tomonidan yozilgan she'rlar o'zining milliyligi, ma'no-mazmuni, sodda va ravnligi orqali insonlar qalbidan joy olishi bilan ham muhimdir. Yuqorida tilga olganimizdek milliy xarakter bu o'zbeklarga xos jihatlardan hisoblanib, buni shoir she'rlaridagi lirik qahramonlar orqali ham anglab yetish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Yusuf. Osmonimga olib ketaman. Toshkent. Yozuvchi 2001
2. Normatov, U Muhammad Yusuf she'riyatining milliy xususiyatlari. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018
3. Muhammad Yusuf. Ko'nglimda bir yor Toshkent. DAVR PRESS 2019
4. Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent: "PHAROS AMBITION" 2022